

Muzaffar
NAIMOV



*Folklor
qo'shiqlari
bolalar xori
uchun*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

Muzaffar Naimov

**FOLKLOR QO‘SHIQLARI
BOLALAR XORI
UCHUN**

(Bolalar musiqa san'at maktablari uchun uslybiy qo'llanma)

Toshkent
«Turon zamin ziyo»
2017

UO'K 898.8(575.151-1)

KBK 85(50')

N-19

Naimov, Muzaffar.

Folklor qo'shiqlari bolalar xori uchun [Matn] / M. Naimov. – Toshkent.
Turon zamin ziyo, 2017. 24 b.

ISBN 978-9943-4922-0-2

Mazkur uslybiy qo'llanma bolalar musiqa san'at maktablari xor jamoalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda folklor jamoalar tomonidan sevilib kuylanib kelayotgan qo'shiqlarning bolalar xori uchun qayta ishlanib moslashtirilgan namunalari berilgan.

Uslybiy qo'llanmadan bolalar musiqa san'at maktablarining xor jamoalari, maktabgacha ta'lim muassasalari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarining havaskor jamoalari ham foydalanishlari mumkin.

UO'K 898.8(575.151-1)

KBK 85(50')

Mas'ul muharrir:

Rustambek Abdullyaev,

*O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor*

Taqrizchilar.

Abduraim Tursunov,

Termiz davlat universiteti dotsenti

Orif Azizov,

*Termiz davlat universiteti katta
o'qituvchisi*

ISBN 978-9943-4922-0-2

*Ushbu uslybiy qo'llanma Denov tumun 16-bolalar musiqa san'at
maktabining 3-pedagogik kengashida muhokama etilib maqullangan
hamda nashrga tavsiya etilgan.*

© M. Naimov,
© "Turon zamin ziyo",
Toshkent, 2017-y.

KIRISH

Yoshlar ta'lim-tarbiyasiga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yangitdan qurib topshirilayotgan zamonaviy musiqa san'at maktablarining texnik jihozlar bilan ta'minlanib ishga tushirilayotganligi tahsinga sazovordir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida"gi, 2015 yil "Bolalar musiqa san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016-2020 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida"gi qarori fikrimizning isbotidir.

Bunga javoban bolalar musiqa san'at maktablarining o'quvchilari faqat Respublika miqyosida emas, hatto chet ellardagi nufuzli tanlovlarda ham o'z iste'dodlarini namoyon etishib O'zbekiston musiqa san'ati dovrug'ini dunyoga namoyish etishmoqda.

O'zbek folklor musiqa san'ati mustaqillik yillaridan e'tiboran katta -katta sahnalarda yanada o'z tarovatini ko'rsatib, hatto chet ellarda ham tinglovchilar qalbidan joy olib kelmoqda.

Folklor qo'shiqlari milliy estrada musiqasida ham keng o'rin olib uyg'unlashib xonandalar repertuarlarida ijro etilishi musiqa ixlosmandlarining olqishlariga sazovor bo'lmoqda. Bunga sabab birinchidan, folklor qo'shiqlarining xalqchilligi bo'lsa, ikkinchidan xonandalar tomonidan qo'shiqlarga sayqal berilib zamonaviylashtirilib, milliy liboslarda ijro etilishidir.

Folklor qo'shiqlarining qayta ishlanib moslashtirilib bolalar xor jamoalari tomonidan ijro etilayotganligi farzandlarimizning milliy musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishini yanada oshirmoqda.

Qardosh xalqlar qo'shiqlarini qayta ishlab o'zbek xor san'atiga tamal toshini qo'ygan buyuk kompozitor Mutavakkil Burxonovdir. Ustozning ijodidan baxramand bo'lib I.Akbarov, S.Boboev, B.Umidjonov, Sh.Yormatov, E.Nechaev, Q.Mamirov, N.Sharafieva va boshqalar tomonidan qayta ishlanib yaratilgan asarlar o'zbek xor musiqasini rivojlanishida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Uslybiy qo'llanmadagi qayta ishlanib moslashtirilgan folklor qo'shiqlari kelajakda xor jamoalari repertuarlarini boyitib milliy musiqa san'atini keng targ'ib etishda ko'mak vazifasini o'taydi degan umiddamiz.

Qo'llanmada joy olgan qo'shiqlardan musiqa san'at maktablaridan tashqari maktagacha ta'lim muassasalari, o'rta ta'lim maktablarining bolalar xor jamoalari ham foydalanishlari mumkin.

Sirg'ali qiz

Cho'zibroq

(O'zbek xalq qo'shig'i)

mf

May - da - yo, sir - g'a - li qiz qay - da - yo.

mf

May - da - yo,

f Sho'x

May - da - yo, may - da - yo sir - g'a - li qiz qay - da - yo?

(O...)

Dar-rov to - pib o - la - ma - no o' - zi bo' - yi may - da - yo.

(O...)

Se - ni ko' - rib qol - ga - nim jil - g'a - li soy qay - da - yo?

Soy - da so - chin ta - ra - gan su - ra - ti oy qay - da - yo?

May - da - yo, may - da - yo sir - g'a - li qiz qay - da - yo?

(O...)

Dar-rov to - pib o - la - ma - no o' - zi bo' - yi may - da - yo.

(O...)

f
Me - ni de-sang su - luv qiz qi - yo boq - ma bi - rov - ga,

So - chi qirq - ta o' - ruv qiz jon - ni o - lar ga - rov - ga.

1.

ga - rov - ga - yey.

May - da - yo,

2.

may - da - yo sir - g'a - li qiz qay - da - yo? Dar-rov to - pib

(O...)

o - la - ma - no o' - zi bo' - yi may - da - yo.

may - da - yo.

1. 2.

(O...)

Naqorat:

Mayda-yo, mayda-yo,
Sirg'ali qiz qayda-yo?
Darrov topib olamano,
O'zi bo'yi mayda-yo.

Seni ko'rib qolganim,
Jilg'ali soy qayda-yo?
Soyda sochin taragan,
Surati oy qayda-yo.

Meni desang suluv qiz,
Qiyo boqma birovga.
Sochi qirgta o'ruv qiz
Jonni olar garovga.

Ufo'-jaqala

Sekin, cho'zibroq

(O'zbek xalq qo'shig'i)

Qiz bolalar

mf

Yor,
O'g'il bolalar

Yor, yor, yor Yor, yor, yor.

Sho'x

Yor, yor, yo - ro - ney yor, yor, yo - ro - ney.

Suv ke - la - di mo' - ri - dan,

yor, yor, yo - ro - ney.

Mo' - ri - dan ham na - ri - dan,

yor, yor, yo - ro - ney.

A - ka - gi - nang ay - lan - sin,

yor, yor, yo - ro - ney.

Ko - ki - ling - ni to - ri - dan,

Ko - ki - ling - ni to - ri - dan,





Tom ustida beda bor, yor-yor, yoroney,
 Maydasini elab ol, yor-yor, yoroney.
 Shuncha barno ichidan, yor-yor, yoroney,
 Yaxshisini tanlab ol, yor-yor, yoroney.

Surxon ko'rkidir Boysun, yor-yor, yoroney,
 Qizlar ro'molin yoysin, yor-yor, yoroney.
 Xalqimizning baxtiga, yor-yor, yoroney,
 Yurtimiz obod bo'lsin, yor-yor, yoroney.

Hay dog'u, dog'ingdan

Sho'x

(O'zbek xalq qo'shig'i)



Qosh agar payvasta bo'lsa,
O'smani gardon qilur.
Yor agar norasta bo'lsa,
Yorni sargardon qilur.

Ko'rsam ham dilim kuyar,
Ko'rmasam ham dilim kuyar.
Ismingiz yodimga tushsa,
So'zamol tilim kuyar.

Lolacha

Quvnoq

(O'zbek xalq qo'shig'i)

Lo - la - cha - ga i - shim bor, hey lo - la.

Kis - sam - da kish - mi - shim bor, hey lo - la la

Kish - mish bo'l - sa may - li - ga hey lo - la hey,

Qiz bo - la - da i - shim bor, hey lo - la la

Lolachaga ishim bor, hey lola,
Kissamda kishmishim bor, hey lola.
Kishmish bo'lsa mayliga, hey lola,
Qiz bolada ishim bor, hey lola.




Tom ustida piyola, hey lola,
Ichi to'la gul lola, hey lola.
Nari turing bo'z bola, hey lola,
Uyaladi qiz bola, hey lola.

Yugur-yugur men turay, hey lola,
Boshini gulga o'ray, hey lola.
Senga kelgan baloga, hey lola,
O'zim kundalang bo'lay, hey lola.

Sust xotin

Shoshilmay

(O'zbek xalq qo'shig'i)



Yomg'ir yog'dir, ko'k bo'lsin,
Qurg'oqchilik yo'q bo'lsin.
Arpa, bug'doy bosh tortsin,
Kayvonilar osh tortsin.

Naqorat:
Sust xotin, suzma xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.


Yomg'ir yog'dir, ho'l bo'laylik,
Biz ham senga jo'r bo'laylik.
Ko'klamda o'ynab-kulib,
Ham sho'xu, ham zo'r bo'laylik.

Naqorat.

Turna keldi

O'rtacha

(O'zbek xalq qo'shig'i)



Turna desam, turumli
Kentalaga qo'nimli.
Turnalar uchsa pastlab,
Risqing kelar unumli.
Arg'amchi, gilamchi.



Turna o'zi qurumli,
Usti qora bo'yni oq.
Turna uchsa balandlab
Yil keladi qurumsoq.
Arg'amchi, gilamchi.

Turna-tillo tarozi,
Obi havoga qozi.
Turna uchsa yurtingga,
Salqin keladi yozi.
Arg'amchi, gilamchi.

Lola sayli

(O'zbek xalq qo'shag'i)

O'rtacha



Sayilimiz sho'x bo'lsin,
Dardu alam yo'q bo'lsin.
Sen qip-qizil yashnagin,
Oq ko'ngillar to'q bo'lsin.



Naqorat.

Yur sayilga boraylik,
Lolalarni ko'raylik.
Quchog'imiz to'ldirib,
Lola gullar teraylik.

Naqorat.

Kovushim

(O'zbek xalq qo'shig'i)





Kovushimning charimi,
Ho'kizning o'rtan belidan.
Yirtilib yorilishi,
Issiq sovuqning zahmidan.

Naqorat.

Mayda

(O'zbek xalq qo'shig'i)

Quvnoq

May - da de - sam, xo'p de - ding may - da - yo, ho may - da

so - mo - ni - ni ko'p de - ding may - da - yo, ho may - da.

May - da qil - sa ya - ra - shar may - da - yo ho may - da.

Ba - ri joni - vor qa - ra - shar may - da - yo, ho may - da.

ff
Xo'p may - da, may - da, may - da may - da - yo, ho may - da

So - mo - ni sen - ga foy - da may - da - yo, ho may - da.

Qayirib, qayirib bosgina, maydayo, mayda,
Qolmasin, o'tsin jonivor, maydayo, mayda.
O'ralib, o'ralib bosgina, maydayo, mayda,
O'ralar to'lsin jonivor, maydayo, mayda.

Naqorat:

Xo'p mayda, mayda, mayda, maydayo, mayda,
Somonni senga foyda, maydayo, mayda.

Seni enang buyurdi, maydayo, mayda,
Suvdana burning jiyirdi, maydayo, mayda.
Seni maydaga qo'shsin deb, maydayo, mayda,
Bobo dehqon buyurdi, maydayo, mayda.

Naqorat.

O'roqchilar qo'shig'i

Tez
f Naqorat (O'zbek xalq qo'shig'i)

Yan - qa - ni das - ta bog' - la - yo, das - ta - ni as - ta bog' - la.

Tok - cha - ga qo'y ta - ro - g'ing, qo'l - ga ol - gin qay - ro - g'ing.

Ar - pa, bug' doy pi - shib - di - yey, charx - lab chiq - qin o' - ro - g'ing.

Yan - qa - ni das - ta bog' - la - yo, das - ta - ni as - ta bog' - la. hey, hey.

rit.

O'roqchilar bor bo'lsin,
Baxil nonga zor bo'lsin.
G'ayrat qiling, jo'ralarey,
Bobo dehqon yor bo'lsin.

Naqorat.

Bog'lab bosgin chanaga,
Qoldirmagin dalaga.
Somonni to'k qo'raga,
Donini to'k o'raga.

Naqorat.

Do'rsi-do'rsi

(O'zbek xalq qo'shig'i)

Cho'zibroq

Do'r si, Do'r si, Do'r si, Do'r-si - ya.

Sho'x

(qo'shiq bilan) Ha do'r - si, do'r - si, do'r - si - ya, o'y-na bo' ying -

ni ko'r - sin. Ha do'r - si, do'r - si, do'r - si - ya ay lan be ling - ni ko'r - sin.

Qo - ra u - zum qo - ra - si-day ko'z - la ring-dan ay - la-nay.
(O...)

Qi - zil u - zum qi - zi - li-day lab - la-ring-dan o'r - gi-lay.
(O...)

Ha do'r - si, do'r - si, do'r - si - ya o'y-na bo' ying - ni ko'r - sin,



Naqorat.

Ha do'rsi, do'rsi, do'rsi-ya,
O'yna, bo'yingni ko'rsin.
Ha do'rsi, do'rsi, do'rsi-ya,
Aylan belingni ko'rsin.

Qora uzum qorasiday
Ko'zlaringdan aylanay.
Qizil uzum qiziliday
Lablaringdan o'rgilay.

Naqorat.



Zangi tokning tanasiday,
Bellaringdan aylanay.
Yangi tokning navdasiday
Qo'llaringdan o'rgilay.

Naqorat.

Laylalo

(O'zbek xalq qo'shig'i)

O'rtacha tez



Atlasimning oqi bor lay-la-la-lo, lay-la-lo,
Tumor qilib taqib ol lay-la-la-lo, lay-la-lo.
Yoshligingda o'ynab qol lay-la-la-lo, lay-la-lo,
O'ynamaganlar kim borey lay-la-la-lo, lay-la-lo.

Osmondagi uch o'rdak lay-la-la-lo, lay-la-lo,
Uchchalasi ham birdek lay-la-la-lo, lay-la-lo.
O'zbekimning qizlariey lay-la-la-lo, lay-la-lo,
Ochilgan qizil guldek lay-la-la-lo, lay-la-lo.

Ariq labini o'ydim lay-la-la-lo, lay-la-lo,
Chakkamga gullar taqdim lay-la-la-lo, lay-la-lo.
Og'ajonim kelsin deb lay-la-la-lo, lay-la-lo,
O'tirib xatlar yozdim lay-la-la-lo, lay-la-lo.

Yor-yor

O'rtacha

(O'zbek xalq qo'shig'i)

mf

Qat - qat - gi - na qat - la - ma qat - la - nib - di yor, yor.

Qiz - ni o - lib yan - ga - lar ot - la - nib - di yor, yor.

Os - mon - da - gi yul - duz - ni sak - kiz deng - lar yor, yor.

Sak - kiz qiz - ning sar - do - ri ke - lin deng - lar yor, yor.

Ke - lin deng - lar yor, yor, ke - lin deng - lar yor - yor.

Aravani tagiga,
Sepdim kepak yor-yor.
Kelin oying seplari,
Sakkiz ipak yor-yor.

Nima kiysang yarashadi,
Bo'yginangga yor-yor.
Yor-yor aytay deb keldimo,
To'yginangga yor-yor.

MUNDARIJA

Kirish	3
Sirg'ali qiz (O'zbek xalq qo'shig'i)	4
Ufo'-jaqala (O'zbek xalq qo'shig'i)	7
Hay dog'u, dog'ingdan (O'zbek xalq qo'shig'i)	9
Lolacha (O'zbek xalq qo'shig'i)	10
Sust xotin (O'zbek xalq qo'shig'i)	11
Turna keldi (O'zbek xalq qo'shig'i)	12
Lola sayli (O'zbek xalq qo'shig'i)	13
Kovushim (O'zbek xalq qo'shig'i)	14
Mayda (O'zbek xalq qo'shig'i)	16
O'roqchilir qo'shig'i (O'zbek xalq qo'shig'i)	18
Do'rsi-do'rsi (O'zbek xalq qo'shig'i)	19

Qizlar xori uchun

Laylalo (O'zbek xalq qo'shig'i)	21
Yor-yor (O'zbek xalq qo'shig'i)	22

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

Muzaffar Naimov

FOLKLOR QO'SHIQLARI BOLALAR XORI UCHUN

*(bolalar musiqa san'at maktablari
uchun uslybiy qo'llanma)*

Muharrir:
I.Muhiddinova

Dizayner:
V.Burtsev

Tex. muharrir:
F.Azizov

«Turon zamin ziyo» nashriyoti
Litsenziya: AI № 278. 2016-yil 11-yanvar

Terishga 2017-yil 15-aprelda berildi.
Bosishga 2017-yil 10-iyun ruxsat etildi.
Bichimi: 60x84 1/16 «Times New Roman» garniturasida
ofset bosma usulida ofset qog'ozida bosildi.
1,5 shart. b.t. 1,4 hisob nashr. tab.
Adadi 100 nusxa. 123-son buyurtma.

“Muharrir nashriyoti” matbaa bo'limida chop etildi.
100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 20^A-mavzei,
So'g'alli ota ko'chasi, 5-uy. E-mail: muharrir@list.ru.



Muzaffar Naimov

1962 yilda Surxondaryo viloyatining Denov shahrida tug'ilgan. M.Ashrafiy nomli Toshkent davlat konservatoriyasini tugatgan. 2000 yilda "O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan, 2012 yilda dotsent unvoni, 2013 yilda "O'zbekiston bastakorlari uyushmasi" a'zo ligiga qabul kilingan. Uning "SURXON QO'SHIQLARI" I-II-III, "QALB NAVOLARI", "AZIZ USTOZLAR haqidagi qo'shiqlar to'plami", "METAR NAVOLARI", "QADIM SURXON NAVOLARI", "SURXONDARYO IJODKORLARI I-II", "FOLKLOR QO'SHIQLARI JO'RSIZ XOR UCHUN" 1-qism, G.Saidmalikov bilan hamkorlikda "KO'NGIL BIR NAVO ISTAR" kitoblari, bir necha uslubiy qo'llanmalari va ilmiy maqolalari nashr etilgan. Hozirda "O'ZBEK MAROSIM QO'SHIQLARI" mavzusida ilmiy ish olib bormoqda.

